



ERTAKDAGI AKA-UKALAR SAFARI XUSUSIDA AYRIM

MULOHAZALAR

Gulsanam Mashrapova, FarDUtayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada jahon xalqlari ertaklarida keng tarqalgan “aka-ukalar safari” haqidagi syujet tiplarining o‘ziga xos jihatlari ayrim ertaklar misolida qiyosiy-tipologik tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: ertak, syujet, aka-uka safari, tahlil, talqin

Ertaklardagi har bir figuraning ko‘p funksionalligi qisman bir personaj bir nechta belgiga ega bo‘lishi bilan izohlanadi[1], shu jumladan, aka-uka obrazlari ham. Safar davomida o‘zlaridan kichik ukalarga hamrohlik qiluvchi akalar mehribon, g‘amxo‘r (bir-birini qo‘llab-quvvatlovchi), hasadgo‘y, ichiqora, shu bilan birga shunchaki beparvo, xudbin kabi semantik belgilarni namoyon qiladi. Ularning xarakteri va xatti-harakati qanchalik xilma-xil bo‘lmasin, epik syujetda turli vazifalarni bajarmasin, baribir, bir umumiy xususiyat ularni birlashtirib turadi. Akalar (ba‘zan opalar)ning ertakdagi pozitsiyasi tanlangan qahramonning afzalligi, qiyoslanayotgan qahramonlardan har tomonlama ortiqligi: donoligi, kuchliligi, ajoyib xislatga ega ekanligi, ota vasiyati va keksalar nasihatiga amal qilishi, bag‘rikengligi, ayrim hollarda sodda, oqko‘ngilligini ko‘rsatish, ta‘kidlashdan iborat.

Aksar ertaklarda akalar safar davomida hech qanday mehnatsiz, mashaqqatsiz maqsadga erishmoqchi bo‘lganlari, g‘aroyib buyumlar va malikaga ega chiqish uchun ukalariga jabr yetkazganlari tasvirlansa-da, ayrim hollarda katta akalar ham xuddi kenjadedek g‘ayritabiiy xislat egasi (M: Yulduzsana, Daryobog‘lar, Qilichqora) yoki aqlida qolishmaydigan (“Uch og‘ayni botirlar”) dono yigitlar kabi xususiyatlarga ega bo‘ladi.

Aka-ukalar safari haqidagi syujetlar, nafaqat o‘zbek, balki, jahon xalqlari ertaklarida ham keng tarqalgan hamda xalqaro ko‘rsatkichlarda quyidagicha tasnif qilingan:

A). **O‘tkir zehnli aka-ukalar: KRJ 94** (ATU 655, CYC 655) – Dono birodarlar. Yaxshi tarbiya ko‘rgan, kuchda, bilimda bir-biridan qolishmaydigan uch aka-uka otalarining talabi bilan “baxt qushini qidirish” uchun safarga chiqishadi. Yo‘lda sher



(to'ng'ich botir), ajdaho (o'rtancha botir), podshoh xazinasiga tushmoqchi bo'lgan bir kam 40 o'g'ri (kenja botir) kabi to'siqlarni yengib, pahlavonlik sinovidan o'tadilar. Podshoh musofir yigitlarni saroyga chaqiradi. Dasturxon ustida itni emib katta bo'lgan qo'zining go'shti, odam qoni qo'shilgan uzumning shinnisi, podshoh nonvoyning o'g'li ekanligi haqidagi haqiqatlarni aytib aql-zakovatda ham tengsiz ekanligini namoyish etadilar. Bizda "Uch og'a-ini botirlar" deb ataluvchi mazkur ertak syujetiga yaqin ko'rinish ATU ko'rsatkichida 655 raqam ostiga "Dono birodarlar" nomi bilan joylashtirilgan.

B) G'ayritabiiy xususiyatga ega uch aka-uka: KRJ 7A (ATU 654, CYC 654 – "Uch mohir aka-uka", *Beryozkin K27xy*). Safarga chiqqan uch aka-ukaning har biri takrorlanmas, ajabtovur xislat egasi bo'ladi. "Qilichqora" nomli o'zbek xalq ertagida katta o'g'ilning ismi Yulduzsano, ya'ni osmondagi yulduzga qarab, qahramonning hayot yoki o'lganligini aytib beradi; o'rtanchaning ismi Daryobog'lar – daryolar, dengizlar suvini bog'lay oladi, ya'ni quritadi; kenjasining ismi Qilichqora bo'lib, mo'jizakor qilichi yordamida har qanday dushmani yenga oladi. Qahramonning joni qilichda, uni o'g'irlanishi va suvga tashlanishi Qilichqoraning vaqtinchalik (to birodarlari qutqarmaguncha) o'limiga sabab bo'ladi.

C) Hasadgo'y akalar - KRJ 74 (ATU 550, CYC 550K, 551, *Beryozkin K38*). Uch aka-uka otasining bog'idan tilla bargli chinor barglari yoki oltin olmalarni o'g'irlayotgan g'aroyib qush yoki sehrli uchar otni izlab yo'lga chiqishadi. Kenja o'g'il sofdil va mehribonligi uchun homiyning yordamini oladi va "Borsa kelmas"ni tanlaganiga qaramay, nafaqat izlagan narsasini, balki qo'shimcha mukofotlar (ot, malika) bilan qaytadi. Akalarini izlab topib ularga g'amxo'rlik qiladi. Akalar hasad tufayli uning ko'zlarini o'yib chuqurga tashlab ketishadi. Ertak so'ngida haqiqat oshkor bo'ladi, akalar jazolanadi. Akalarning kenja ukaga hasadi va turli yomonliklar qilishi boshqa ertaklarda ham mavjud.

D) Qush yuragi va ikki aka-uka: KRJ 87 (ATU 567, CYC 567). G'aroyib Murg' qushi yuragini yegan inson shoh bo'ladi, boshini yegan shaxs esa vazir bo'ladi yoki har kuni yostig'ining tagidan tilla topadi. "Rustamzod va Sherzod", "Murqumomo" nomli o'zbek xalq ertaklarida ikki aka-uka o'gay ona o'zi va xushtori uchun pishirayotganini sehrli qush yuragi va boshini bilmay yeb qo'yishadi. Shundan so'ng ular tuhmat bilan uydan haydaladi. Katta aka "Borsa kelar"ga borib, podshoh bo'ladi. Ukasi "Borsa kelmas"ga yurib, ko'p qiyinchiliklarni boshidan kechiradi va ertak so'ngida akasi bilan topishadi.



Ikkinchi bir variantda uydan quvg'in qilingach, daraxt soyasida uxlashadi. Unga qo'ngan ikki qush bolalarning kelajagi haqida bashorat qilishadi va kim ushbu qushlarni otib, yuragini yesa, podshoh bo'lishini bashorat qilishadi. Birga yo'lga chiqqan akalar ertakning mana shu nuqtasidan boshlab ajralishadi (kattasi ukasini o'lgan deb o'ylab tashlab ketadi). Qushning yuragini yegani uchun aka ko'p o'tmay haqiqatan ham podshoh bo'ladi. Ertakning asosiy mazmunini ukaning safar davomidagi qiyinchiliklari tashkil etadi. Tuhmatlar, mislsiz qiyinchiliklarni, yovuz insonlarning zulmini yengib, axiyri u akasini topadi va uka akasiga vazir bo'ladi.

Folklorshunoslikda aka-ukalar obrazi tahlillarida ular o'rtasidagi munosabat qadimgi urug'chilik davri mayorat tartiblari asosiga qurilgani haqidagi fikrlar ko'plab uchraydi. Lekin keyingi davr tadqiqotlarida masalaga boshqacha yondashuv, obrazlarning o'zgacha talqinini ham guvohi bo'lamiz. Folklorshunos Jabbor Eshonqul katta aka obrazini mavjud tajriba, o'rtancha akani esa imkoniyat ramzi ekanini ta'kidlasa[3], professor Shomirza Turdimov katta akani yeb-ichish, tana xohishlarining quli (oshpaz), o'rtancha akani esa tanani poklaydigan, lekin qalbni tozalashga iroda kuchi yetmaydigan aql va sevgisiz qalb egasi (go'loh) sifatida talqin qiladilar[2]. Darhaqiqat, so'nggi yillarda olib borilgan ko'plab tadqiqotlarda safar folklorda ham, badiiy adabiyotda ham insonning o'z olamiga, o'zlik dunyosiga sayohati, yo'lni esa komillik sari eltish vositasi sifatida tasavvuf ta'limotlariga uyg'un kelishi o'z tasdig'ini topmoqda.

Xulosa qilib aytganda, aka-ukalar safari haqidagi syujet tiplari dunyo xalqlarida kenga tarqalgan sevimli ertaklar hisoblanib, tahlil va talqinlar qanchalik xilma-xil, ramz va timsollar tili nechog'lik serjilo bo'lmasin, ertak syujetida akalar obrazining pozitsiyasi o'zgarmaydi. Yuqorida ta'kidlanganidek, ularning bosh vazifasi ideal qahramonning fazilat qirralarini ko'rsatuvchi, bo'rttiruvchi fon funksiyasini bajarishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Новик Е.С. Система персонажей русской волшебной сказки //Типологические исследования по фольклору. Сб. ст. памяти В.Я. Проппа. М., 1975. – С. 220.
2. Турдимов Ш. Борса келмасдаги хазина // Тафаккур. – Тошкент, 2015. № 3. – Б. 94-103.



3. Эшонқул Ж. Фольклор: образ ва талқин. – Қарши: Насаф, 1999. – Б. 72-78.
4. Keller G., Rachimov Ch., Juraev M. – Typenkatalog Usbekischer /Zauhermarchen (Klassifizierung mil Kommentaren). Band I-II. – Freiburg: Vorabdruck, 2018. – B. 750.
3. Rutenia//folklore/beryozkin